

## IKKILAMCHI RESURSLAR VA ULARNING QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDAGI O'RNI

Yo'ldasheva Muhayyo Alisher qizi

Farg'onha politexnika instituti talabasi

E-mail: [yoldashevamuhayyo99@gmail.com](mailto:yoldashevamuhayyo99@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi kunning dolzarb masalasi bo'lgan tabiiy resurslaridan to'g'ri foydalanish va ekologiyaga ta'sir etuvchi omillarni bartaraf qilish yo'nalishida amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar va ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Qurilish materiallari, energiya, qurilish sanoati, iqtisod, ekologiya, sanoat chiqindilari, korxonalar, ishlab chiqarish.

**Abstract:** This article discusses the proper use of natural resources, which are a pressing issue of our day, and the efficient use of secondary resources, which are important to be carried out in addressing factors affecting ecology.

**Keywords:** Construction materials, energy, construction industry, economics, ecology, industrial waste, enterprises, manufacturing.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы рационального использования природных ресурсов, которые являются актуальным вопросом современности, и эффективного использования вторичных ресурсов, которые важно осуществлять при устранении факторов, влияющих на экологию.

**Ключевые слова:** Строительные материалы, энергетика, строительная индустрия, экономика, экология, промышленные отходы, предприятия, производство.

"Bugungi kunda qurilish sanoatida Respublikamizning rivojlangan davlatlar qatorida zamonaviy qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, ularning moddiy texnik bazasini kengaytish, innovatsion texnologiyalarni amaliyatga tadbiq etish yo'lidan jadal bormoqda. Davlatimiz raxbaryati tomonidan atrof-muxit va ekologiyani toza xolda saqlanishiga e'tiborni qaratgan holda, ekologik toza energotejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarishga erishish maqsadida bir qancha muxim qarorlar qabul qilingan. Xususan, 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4477- son Qarorida 2019—2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil»

iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida muxim bosqichlar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko‘paytirish belgilangan.

2022-2026 yillarda Jizzax viloyatida qiymati 1,4 mlrd dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Natijada, Dasturga muvofiq, 2026 yil yakuni bilan:

- viloyatda qurilish mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1,9 barobarga oshiriladi; – eksport hajmi 17,8 mln dollarga yetkaziladi;
- mahalliylashtirish dasturi doirasida 1,2 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqariladi;
- 3 484 nafar yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 21 fevraldaggi PQ-139-son qaroriga asosan qurilish sohasini va qurilish materiallari kompleksini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Mazkur qarorga asosan, Respublikaning 8 ta, jumladan Forish tumanida qurilish materiallari klasterlari tashkil etiladi va boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini tashkil qilish orqali qurilish materiallarini ishlab chiqarish rivojlantiriladi.”[1] Bugungi kunda nafaqat energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalari ilagari surib kelinmoqda. Bunga qo‘sishimcha sifatida ikkilamchi resurslardan qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarida samarali foydalanish kabi dolzarb g‘oyalar ham keng miqqosda amalga tadbiq qilib kelinmoqa. Jumladan aytish joizki, “Gips bog‘lovchi modda sifatida qurilishda va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida keng tarqagan bo‘lib, uning o‘rni qurilish sanoati rivojlanishi bilan tobora oshib bormoqda. Qurilish materiallarining turlari ayniqla energotejamkor, yangi zamonaviy va sanoat chiqindilar asosida olinadigan materiallar hisobiga kengaymoqda. Ana shunday zamonaviy qurilish materiallaridan biri, quruq qurilish qorishmalaridir. Quruq qurilish qorishmalarini ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni kamaytirish yo‘llidan biri, mahalliy homashyolardan foydalanilgan holda, yuqori fizik-mexanik xossalari ega bo‘lgan va arzon tarkiblarni ishlab chiqarishga joriy qilishdir [2]. Shuningdek, ikkilamchi resurslar haqida so‘z borar ekan chiqindilar quyidagicha turlarga bo‘linishini bilib olish muhim hisoblanadi. “Atrof-muhitga tushadigan qattiq chiqindilar uchta toifaga bo‘linadi:

1) Sanoat, qishloq xo‘jalik va shahar xo‘jaligining maishiy chiqindilar. Sanoat chiqindilarining asosiy qismi quyidagilardir: kon va kon-kimyo (uyumlar, shlaklar va boshqalar);

- 2) Qora va rangli metallurgiya (shlak, shlamlar, chang va boshqalar); metalni ishslash korxonalari (qirindi, brakka chiqqan buyumlar va boshqalar);
- 3) O'rmon va yog'ochga ishvlov berish sanoati (yog'och tayyorlash chiqindilari, yog'och qipig'i, mayda bo'lakchalar va boshqalar),
- 4) Issiqlik elektrostansiyalari,
- 5) Energiya xo'jaligining (kul, shlak va boshqalar),
- 6) Kimyo va boshqa turdag'i sanoat tarmoqlari (fosfogips, ogarka, shlaklar, shlamlar, shisha siniqlar, sement changi),
- 7) Organik ishlab chiqarishlar (rezina, platmassa va boshqalar),
- 8) Oziq-ovqat (suyak, jun va boshqalar),
- 9) Yengil to'qimachilik va paxta tozalash sanoati (mineral va organik, chang, shlam, paxtani tozalagandan keyingi organik va mineral iflos aralashmalar va boshqalar.)"[3]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1 "YANGI O'ZBEKISTON: ILM QALDIRG'OCHLARI - 2023" II-RESPUBLIKA KO'RIK TANLOVI HAMDA TALABALARNING ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI A.A.Baxodirov O'zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi boshqaruv raisining ilm-fan va innovatsiyalar bo'yicha birinchi o'rribosari т.ф.д., профессор
- 2 Б.Р. Исакулов. Получение высокопрочных арболитобетонов на основе композиционных шлакощелочных и серосодержащих вяжущих. Диссертация на соис. уч. степ. доктора технических наук. Иванова, 2015 г.
3. S.M.Turobjonov, M.M.Niyazova, T.T.Tursunov, X.L.Pulatov SANOAT CHIQINDILARINI REKUPERATSIYA QILISH TEKNOLOGIYASI O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI TOSHKENT – 2011
4. Rustam, A., & Nasimbek, M. (2021). A New Method Of Soil Compaction By The Method Of Soil Loosening Wave. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 6-16.